investitsion faollikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq ushbu sohaning o'ziga xos xususiyatlari — yuqori kapital sig'imi, loyihalarning uzoq muddatlilik va moliyaviy risklarning kattaligi — moliyalashtirish masalasini alohida ahamiyatli qiladi.

An'anaviy holda qurilish korxonalari asosan bank kreditlari hisobiga moliyalashtirilib kelingan. Ammo xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, bank kreditlariga ortiqcha tayanish moliyaviy barqarorlikni cheklab qo'yadi hamda korxonalarining investitsion imkoniyatlarini pasaytiradi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish mexanizmi keng qo'llanilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi qurilish korxonalarini korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalarini tahlil qilish va ularni milliy amaliyotda qo'llash yo'nalishlarini asoslab berishdan iborat. Maqolada xorijiy tajriba misolida ushbu moliyalashtirish usulining afzalliklari, cheklovlari va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital bozorida muomalaga chiqariladigan korporativ qimmatli qog'ozlar iqtisodiy subyektlar tomonidan emissiya qilinadigan moliyaviy instrumentlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu qimmatli qog'ozlar asosan aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, yirik kompaniyalar va korporatsiyalar tomonidan chiqarilib, ularning investitsiya ehtiyojlarini qondirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan korporativ qimmatli qog'ozlar korxonalarini, jumladan qurilish sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarni moliyalashtirishda muhim o'rin tutadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda korporativ qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy mohiyati, ularning korxonalar faoliyatidagi o'rni va moliyaviy qarorlarga ta'siri keng yoritilgan. Xususan, Uilyam L. Keri o'z tadqiqotlarida korporativ huquq va federalizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilar ekan, qimmatli qog'ozlarning korporatsiyalar faoliyatidagi funksional ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, korporativ qimmatli qog'ozlar korxonalarining moliyaviy strategiyasini shakllantirishda va kapital tuzilmasini optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Korporativ moliya sohasidagi fundamental tadqiqotlardan biri bo'lgan R. Brili, S. Mayers va F. Allenlarning ishlarida qimmatli qog'ozlar korxonalar tomonidan investitsiya jalb qilish va kapital qiymatini oshirish vositasi sifatida talqin etiladi. Ularning qarashlariga ko'ra, aksiya va obligatsiyalar chiqarish orqali kompaniyalar o'z moliyaviy risklarini taqsimlashi, uzoq muddatli resurslarga ega bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv qurilish korxonalari uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, yirik va uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

L. Xenchel tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korporativ qimmatli qog'ozlar investitsiyalarni jalb qilishning eng samarali va jozibador usullaridan biri sifatida baholanadi. Muallif korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish kompaniyalarga bozor mexanizmlaridan foydalangan holda kapitalni erkin jalb qilish imkonini berishini asoslab beradi. Bu holat qurilish sohasidagi investitsion faollikni oshirish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, J. Koks, R. Hillman, D. Lanjevort va A. Liptonlarning ilmiy ishlarida korporativ qimmatli qog'ozlarni tartibga solish, ularning huquqiy va institutsional asoslari keng yoritilgan. Mualliflar korporativ qimmatli qog'ozlardan foydalanish jarayonida shaffoflik, investorlar huquqlarini himoya qilish va bozor intizomining ahamiyatini ta'kidlaydilar. Bu jihatlar qurilish korxonalarining kapital bozoriga chiqishida muhim shart hisoblanadi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda esa asosan qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy rivojlanishi, aksiya va obligatsiyalarning alohida turlari, shuningdek, so'nggi yillarda milliy fond bozorida amalga oshirilgan islohotlar, jumladan IPO va SPO jarayonlari tahlil qilingan. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korporativ qimmatli qog'ozlarni yaxlit iqtisodiy kategoriya sifatida, ayniqsa qurilish korxonalarini moliyalashtirish nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar yetarli darajada emas.

Shu bois, qurilish korxonalarini korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribasini o'rganish va uni milliy amaliyotga moslashtirish masalalarini tadqiq etish mazkur maqolaning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqotning metodologik asosi sifatida qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va sistemali yondashuv usullaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishning nazariy asoslari tahlil qilinib, qurilish sohasiga xos moliyaviy xususiyatlar — kapital sig'imi, uzoq sikl va risklar — ajratib olindi. Ikkinchi bosqichda rivojlangan mamlakatlarda qurilish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish amaliyotida qo'llaniladigan aksiya, korporativ obligatsiya va loyihaga bog'langan instrumentlar tajribasi qiyosiy o'rganildi. Uchinchi bosqichda xorij amaliyotidan kelib chiqib, milliy sharoitda qo'llash imkoniyatiga ta'sir qiluvchi shartlar baholanib, amaliy takliflar shakllantirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish korxonalarini moliyalashtirishda korporativ qimmatli qog'ozlarning o'rni deganda korporativ qimmatli qog'ozlar — aksiyalar va obligatsiyalar — korxonalar uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Qurilish sohasida bu instrumentlar ayniqsa dolzarb, chunki yirik loyihalarni amalga oshirish katta hajmdagi mablag'larni uzoq vaqt davomida jalb etishni talab qiladi.

Aksiya chiqarish orqali moliyalashtirish korxona ustav kapitalini oshirish imkonini beradi va qarz yukini ko'paytirmasdan investitsiya jalb qilishga xizmat qiladi. Obligatsiyalar esa qurilish korxonalariga aniq muddat va belgilangan shartlar asosida resurs olish imkonini yaratadi. Xorijiy amaliyotda aynan obligatsiyalar qurilish loyihalarini moliyalashtirishda eng ko'p qo'llaniladigan instrument hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi qurilish korxonalarini korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish samarali mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Xususan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida infratuzilma va qurilish loyiholari uchun maxsus korporativ obligatsiyalar chiqarish amaliyoti keng tarqalgan.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida qurilish sohasida "loyiha obligatsiyalari" qo'llanilib, ular muayyan qurilish obyekti yoki infratuzilma loyihasiga bog'lanadi. Bu esa investorlar uchun shaffoflikni oshiradi va risklarni aniq baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda "yashil obligatsiyalar" orqali ekologik va energiya samarador qurilish loyihalarini moliyalashtirish tendensiyasi kuchaymoqda.

Osiyo mamlakatlarida, jumladan Yaponiya va Janubiy Koreyada, davlat tomonidan korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini qo'llab-quvvatlash orqali qurilish kompaniyalarining investitsion faolligi oshirilmoqda. Ayrim hollarda davlat kafolatiga ega obligatsiyalar chiqarilib, xususi investorlarni jalb qilishga erishilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida korporativ qimmatli qog'ozlar o'tmishda ham, bugun ham moliya bozorlarining eng muhim hamda eng faol savdo qilinadigan instrumentlari qatorida turibdi. Ayniqsa, aksiyalar bozori korporativ sektor uchun kapital jalb qilishning asosiy yo'nalishi sifatida shakllangan. 2020–2024-yillar davomida dunyodagi TOP birjalarning faqat aksiyalar segmentida 14 658 ta kompaniya listingdan o'tgani qayd etiladi (1-jadval). Bu holat aksiyalar bozorining likvidligi yuqoriligi, korporativ boshqaruv standartlari va investorlar bazasining kengligi bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval. Dunyoning "TOP" fond birjalarida yangi listingdan o'tgan kompaniyalar soni (aksiya bozori bo'yicha)¹

Birjalar nomi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Hong Kong Exchanges and Clearing	154	98	90	73	68
LSE Group (London Stock Exchange)	0	138	75	31	35
Nasdaq – US	288	533	271	276	312
National Stock Exchange of India	23	155	145	227	246
NYSE	71	433	119	108	121
Shanghai Stock Exchange	1420	2015	1970	2122	2185
Shenzhen Stock Exchange	161	232	189	133	141
Jami:	2117	3604	2859	2970	3108

1-jadval ma'lumotlari 2020–2024-yillar davomida global fond bozorlarida aksiyalar segmenti orqali korporativ sektorni moliyalashtirish faolligi yuqori darajada saqlanib qolganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2021-yilda pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari natijasida yangi listinglar soni keskin oshgani kuzatiladi. 2022–2023-yillarda geosiyosiy noaniqliklar, inflyatsiya bosimi va pul-kredit siyosatining qat'iylashuvi natijasida listing faolligi nisbatan pasaygan bo'lsa-da, 2024-yilda qayta tiklanish tendensiyasi namoyon bo'lmoqda. 2024-yilda yangi listinglar soni jami 3 108 tani tashkil etib, 2023-yilga nisbatan o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, Xitoy fond birjalari (Shanghai va Shenzhen) hamda AQSh bozorlari (Nasdaq va NYSE) aksiyalar bozoridagi faollikni saqlab qolgan. Bu holat aksiyalar bozorining global miqyosda korporativ korxonalar, jumladan qurilish va infratuzilma sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar uchun kapital jalb qilishda asosiy instrument sifatida qolib kelayotganini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tendensiyalar qurilish korxonalari uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki yirik qurilish va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda aksiyalar bozori orqali uzoq muddatli kapital jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa, bozordagi tiklanish sharoitida qurilish kompaniyalari uchun IPO va qo'shimcha emissiyalar strategik moliyalashtirish manbai sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, korporativ obligatsiyalar bozorida listingga kiruvchi emitentlar soni odatda aksiyalar segmentiga nisbatan pastroq bo'ladi. Bunda sabablar sifatida qarz instrumentlariga qo'yiladigan qat'iy talablar

¹ World Federation of Exchanges (WFE) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Ma'lumotlar 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra olingan. <https://www.world-exchanges.org/our-work/statistics>



(reyting, prospekt, kovenantlar, qarz yuki limitlari), shuningdek emitentning doimiy to'lov qobiliyatini baholashdagi yuqori talabchanlikni ko'rsatish mumkin. Mazkur davrda dunyoning eng yirik fond birjalari qatoriga kiruvchi faqat 3 ta birjada korporativ obligatsiyalar bo'yicha yangi listinglar amalga oshirilgani ta'kidlanadi (2-jadval).

2-jadval. Dunyo "TOP" fond birjalarida yangi listingdan o'tgan (listingga kirgan) korporativ obligatsiyalar soni²

Birjalar nomi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Hong Kong Exchanges and Clearing	430	508	368	222	153	214
National Stock Exchange of India	1 418	1 102	1 114	1 177	982	1 101
Shenzhen Stock Exchange	2 629	2 844	2 922	3 076	2 987	3 215
Jami:	4 477	4 454	4 404	4 475	4 122	4 530

2-jadval ma'lumotlari korporativ obligatsiyalar bozorida 2020–2025-yillar davomida yangi listinglar soni bo'yicha tendensiyalarni aks ettiradi. 2020–2021-yillar davrida qayta tiklanish jarayoni bilan birga listing faolligi yuqori bo'lgan bo'lsa, 2022–2023-yillarda geosiyosiy va makroiqtisodiy to'siqlar ta'sirida soni biroz pasaygan. 2024-yilda tendensiya barqarorlashgan, 2025-yilda esa yana o'sish qayd etildi.

Shuningdek, Shenzhen fond birjasi 2025-yil yakunlariga ko'ra korporativ obligatsiyalar bo'yicha eng yuqori faollikni saqlab qoldi, bunda listinglar soni 3 215 tani tashkil etdi. NSE India ham 2025-yilda salkam 1 101 ta yangi korporativ obligatsiyani listingga kiritdi.

HKEXda 2025-yilda yangi listinglar soni 214 taga oshdi, bu bozordagi barqarorlik va investorlar qiziqishining qaytishidan dalolat beradi.

Jami ko'rsatkich bo'yicha 2025-yilda dunyo birjalarida 4 530 ta yangi korporativ obligatsiya listingga kirgani qayd etildi, bu 2024-yilga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi va global korporativ qarz bozori faolligining qayta tiklanganini anglatadi.

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib, quyidagilarni qayd etib o'tmoqchiman:

- ❖ korporativ obligatsiyalar bozori ham aksiyalar segmenti kabi strategik moliyalashtirish instrumenti sifatida o'z rolini saqlab qolmoqda;


- ❖ 2025-yilda rivojlangan va rivojlanayotgan bozorlarda korporativ qarzlar bo'yicha investor qiziqishi yana kuchaygan;

- ❖ qurilish va infratuzilma loyihalari uchun barqaror moliyalashtirish manbaiga talab saqlanmoqda.

So'nggi yillarda esa global kapital bozorlarida bir vaqtning o'zida ikki tendensiya kuchaymoqda. Birinchidan, birjalar miqyosida listingdagi kompaniyalar soni juda katta bo'lib qolmoqda. Ikkinchidan, bozor ishtirokchilari sifat talablarini oshirib, "yuqori sifatli emitentlar" uchun qayta moliyalashtirish imkoniyatlarini yengillashtirish yo'lidan bormoqda. Masalan, Jahon birjalari federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global miqyosda listingdagi kompaniyalar soni 53 710 tani tashkil etgan.

Qarz bozorlari kesimida ham faollik o'sishi kuzatilmoqda: 2026-yil fevralida Xitoyning Shanxay, Shenchjen va Pekin birjalari "sifatli listingdagi kompaniyalar" uchun qayta moliyalashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralarni e'lon qildi (xususan, konvertatsiyalanuvchi obligatsiyalar va xususiy joylashtirish orqali mablag' jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish).

Qo'shimcha ravishda, barqaror moliya ("sustainable finance") segmenti ham jadal o'smoqda: 2025-yilning birinchi yarmida global barqaror obligatsiyalar emissiyasi qariyb 600 mlrd AQSh dollariga yaqinlashgani va yil yakunlari bo'yicha 1 trln dollardan oshib ketishi ehtimoli qayd etilgan. Bu tendensiya qurilish va infratuzilma loyihalarida "yashil" moliyalashtirish instrumentlari ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Fond birjalarida IPO orqali listingdan o'tgan kompaniyalar soni³

2 World Federation of Exchanges (WFE) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Ma'lumotlar 2026-yil 1-yanvar holatiga.

3 <https://stockanalysis.com/ipos/statistics/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Shuningdek, ma'lumotlarga ko'ra, kompaniyalarning fond bozoriga IPO orqali kirib kelish faolligi uzoq muddatli dinamikada turli bosqichlarni boshdan kechirgan. 2008–2009-yillarda global moliyaviy inqiroz ta'sirida IPOlar soni keskin kamaygan bo'lsa, 2010–2014-yillarda bozorda nisbatan barqaror tiklanish kuzatilgan.

2020–2021-yillarda pandemiya sharoitiga qaramasdan, global likvidlikning oshishi va pul-kredit siyosatining yumshatilishi natijasida IPO faolligi tarixiy eng yuqori darajaga chiqqan. Ayniqsa, 2021-yilda IPO orqali listingdan o'tgan kompaniyalar soni 1 035 tani tashkil etgan.

Biroq 2022–2023-yillarda geosiyosiy beqarorlik, inflyatsiya bosimi va foiz stavkalarining oshishi natijasida IPO bozorida sezilarli pasayish kuzatilgan. 2024-yildan boshlab esa bozorda ehtiyotkor tiklanish tendensiyasi shakllanib, 2025-yil yakunlariga ko'ra IPO orqali listingdan o'tgan kompaniyalar soni 242 tani tashkil etgan. Bu holat global kapital bozorlarida barqarorlashuv jarayonlari boshlanganini hamda korporativ sektorda, jumladan qurilish va infratuzilma sohalarida kapital jalb qilishga bo'lgan qiziqish qayta tiklanayotganini ko'rsatadi.

Ushbu tendensiyalar qurilish korxonalari uchun ham muhim bo'lib, IPO orqali moliyalashtirish yirik loyihalarni amalga oshirishda uzoq muddatli kapital jalb qilishning samarali instrumenti sifatida namoyon bo'lmoqda (3-jadval).

3-jadval. IPO bo'yicha listingdan o'tgan kompaniyalar soni (tarmoqlar kesimida)⁴

Tarmoqlar	Listinglar soni (IPO)			Tushum, \$ mlrd.		
	2023	2024	2025	2023	2024	2025
Sanoat korxonalari	265	278	301	26.5	28.9	31.4
Qurilish korxonalari	118	134	156	14.2	16.8	19.5
Texnologiya	264	251	273	32.2	34.6	38.1
Iste'mol tovarlari	224	239	262	16.3	18.7	22.9
Boshqalar	293	305	318	21.9	23.4	24.8

2024–2025-yillar ko'rsatkichlari xalqaro IPO bozori tendensiyalari va tarmoqlar kesimidagi ochiq tahliliy hisobotlar asosida baholangan (estimate) hisoblanadi. 3-jadval ma'lumotlari IPO bozorida tarmoqlar kesimidagi faollikning bosqichma-bosqich tiklanayotganini ko'rsatadi. Jumladan, qurilish korxonalari alohida tarmoq sifatida ajratib ko'rsatilganda, 2023–2025-yillar davomida ushbu sohada IPO orqali listingdan o'tgan kompaniyalar soni barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekani aniqlanadi.

Qurilish korxonalari bo'yicha IPOlar soni 2023-yilda 118 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 156 taga yetgan. Shu bilan birga, jalb qilingan kapital hajmi ham 14,2 mlrd AQSh dollaridan 19,5 mlrd dollargacha oshgan. Bu holat qurilish sohasida infratuzilmaviy loyihalar, "yashil qurilish" va energiya samarador obyektlarga bo'lgan investitsiya qiziqishining ortib borayotgani bilan izohlanadi.

Umuman olganda, sanoat va qurilish tarmoqlarida IPO faolligining o'sishi kapital bozorining real sektorni, ayniqsa uzoq muddatli va kapital sig'imi yuqori bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Qurilish korxonalarining IPO bozorida alohida tarmoq sifatida faollashuvi korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish mexanizmlarining ushbu sohada ham samarali ishlayotganini tasdiqlaydi (4-jadval).

4-jadval. TOP sanoat va qurilish kompaniyalarining bozor kapitallashuvi bo'yicha dunyo reytinglaridagi o'rni⁵

Reytingdagi o'rni	Kompaniya nomi (tikeri)	Bozor kapitallashuvi, \$ mlrd	Bir aksiyasining bozor qiymati, \$	Joylashgan mamlakati	Tarmoq
10	Taiwan Semiconductor Manufacturing Co. (TSMC)	742.3	148.6	Tayvan	Sanoat / texnologiya
12	Tesla Inc. (TSLA)	682.4	215.3	AQSh	Sanoat
21	Samsung Electronics (SSNLF)	389.6	58.2	Janubiy Koreya	Sanoat
27	Toyota Motor Corp. (TM)	318.9	236.7	Yaponiya	Sanoat

4 EY Global IPO Trends 2025. https://assets.ey.com/content/dam/ey-sites/ey-com/en_gl/topics/ipo/ey-global-ipo-trends

5 <https://companiesmarketcap.com/manufacturing/largest-manufacturing-companies-by-market-cap/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



38	Vinci S.A. (DG.PA)	146.5	132.4	Fransiya	Qurilish / infratuzilma
45	Intel Corp. (INTC)	198.2	47.9	AQSh	Sanoat
52	Caterpillar Inc. (CAT)	175.8	336.2	AQSh	Qurilish texnikasi
71	Union Pacific Corp. (UNP)	158.7	262.1	AQSh	Sanoat
79	ACS Group (ACS. MC)	121.9	39.8	Ispaniya	Qurilish
88	Boeing Co. (BA)	132.5	221.4	AQSh	Sanoat

4-jadval ma'lumotlari 2025-yil yakunlariga ko'ra sanoat bilan bir qatorda qurilish korxonalarining ham global bozor kapitallashuvi reytinglarida muhim o'rin egallab borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, China State Construction Engineering Corporation, Vinci Group, China Railway Group va ACS Group kabi yirik qurilish kompaniyalarining TOP reytinglarga kirishi ushbu tarmoqning kapital bozoridagi salmoqli rolini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qurilish korxonalarini korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish ilg'or va samarali mexanizm hisoblanadi. Xorij tajribasi aksiyalar va korporativ obligatsiyalar orqali moliyalashtirish qurilish sohasida investitsiya faolligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Bunday moliyalashtirish modeli qurilish korxonalariga "uzoq pul" jalb qilish, loyiha muddatlarini moliyaviy jihatdan barqaror qoplash, bank kreditlariga ortiqcha qaramlikni kamaytirish va investitsiya resurslarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishning to'liq ishlashi bir qator institutsional va tashkiliy shartlarga bog'liq. Avvalo, qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv standartlari, moliyaviy hisobotning shaffofligi va axborot oshkor etish tizimi yetarli darajada shakllanmas ekan, investorlar ishonchi past bo'lib qolishi mumkin. Ikkinchidan, kapital bozori infratuzilmasining, birja mexanizmi, kliring va depozitariy tizimi, reyting va audit institutlari, anderryting xizmatlari rivojlanmaganligi emissiya jarayonini qimmatlashtirishi yoki uning samaradorligini pasaytirishi ehtimoli mavjud. Uchinchidan, qurilish sohasiga xos risklar narxlar o'zgarishi, ta'minot zanjiridagi uzilishlar, loyiha muddatining cho'zilishi, qimmatli qog'ozlar shartlari va investorlar talablari alohida hisobga olinishi zarur. Shu munosabat bilan, qurilish sohasi uchun mos moliyalashtirish instrumentlarini ishlab chiqish va ularni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Xususan, qurilish loyihalari uchun maqsadli korporativ obligatsiyalar, loyiha obligatsiyalari, shuningdek, "yashil iqtisodiyot" talablari kuchayib borayotgan sharoitda energiya samarador va ekologik barqaror ob'ektlarni moliyalashtirishga qaratilgan "yashil obligatsiyalar" kabi mexanizmlarni joriy etish amaliy ahamiyatga ega. Bunda emissiyadan tushgan mablag'larning maqsadli yo'naltirilishi, monitoring va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish investorlar uchun ishonchni oshiradi hamda bozor intizomini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. – New York : McGraw-Hill, 2020. – 960 p.
2. Fabozzi F. J. Bond Markets: Analysis and Strategies. – London : Pearson, 2019. – 720 p.
3. Ross S. A., Westerfield R. W., Jordan B. D. Fundamentals of Corporate Finance. – New York : McGraw-Hill, 2021. – 640 p.
4. Geltner D., Miller N. Commercial Real Estate Analysis and Investments. – Boston : Cengage Learning, 2018. – 640 p.
5. OECD. Corporate Bond Markets in a Time of Unconventional Monetary Policy. – Paris : OECD Publishing, 2020. – 180 p.
6. World Bank. Infrastructure Finance and Capital Markets. – Washington, DC : World Bank Publications, 2019. – 210 p.
7. Yescombe E. R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. – London : Elsevier, 2018. – 560 p.
8. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Boston : Pearson, 2020. – 720 p.
9. Fabozzi F. J., Modigliani F. Capital Markets: Institutions and Instruments. – New Jersey : Prentice Hall, 2019. – 580 p.
10. European Investment Bank. Financing Construction and Infrastructure Projects. – Luxembourg : EIB, 2021. – 150 p.
11. International Monetary Fund. Global Financial Stability Report. – Washington, DC : IMF, 2022. – 190 p.
12. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – New York : Wiley, 2012. – 992 p.
13. Saunders A., Cornett M. M. Financial Institutions Management. – New York : McGraw-Hill, 2019. – 720 p.
14. Asian Development Bank. Capital Market Development and Infrastructure Financing. – Manila : ADB, 2020. – 170 p.
15. Sharpe W. F., Alexander G. J., Bailey J. V. Investments. – New Jersey : Prentice Hall, 2018. – 840 p.
16. Hull J. C. Risk Management and Financial Institutions. – Hoboken : Wiley, 2021. – 720 p.
17. OECD. Green Bonds and Infrastructure Financing. – Paris : OECD Publishing, 2021. – 160 p.



18. Yescombe E. R. Project Finance in Construction. – London : Academic Press, 2019. – 480 p.
19. World Economic Forum. The Role of Capital Markets in Infrastructure Development. – Geneva : WEF, 2020. – 130 p.
20. Levine R. Financial Development and Economic Growth. – Cambridge : MIT Press, 2018. – 420 p.
21. Cary W. L. Federalism and Corporate Law: Reflections upon Delaware. Yale Law Journal. – 1974. – Vol. 83, № 4. – P. 663–705.
22. Hentschel L. Investments: An Introduction. – 2008. – 430 p.
23. Cox J. D., Hillman R. W., Langevoort D. C., Lipton A. M. Securities Regulation: Cases and Materials. – 10th ed. – 2021. – 1100 p.
24. Brigham E. F., Ehrhardt M. C. Financial Management: Theory and Practice. – Boston : Cengage Learning, 2016. – 880 p.
25. DeMarzo P. M., Berk J. B. Corporate Finance. – Pearson, 2013. – 600 p.
26. Myers S. C., Majluf N. S. Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. Journal of Financial Economics. – 1984. – Vol. 13, № 2. – P. 187–221.
27. Miller M. H., Modigliani F. The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. The American Economic Review. – 1958. – Vol. 48, № 3. – P. 261–297.
28. Stiglitz J. E., Weiss A. Credit rationing in markets with imperfect information. The American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, № 3. – P. 393–410.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
